

O'ZBEKISTONNING YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYASIDA SUD HOKIMYATINING O'RNI

Ashurov Azamat

Husanova Azizalar

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti 423- guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Yangiboyev N.Q.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20081918>

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga muvofiq sud hokimiyatining transformatsiyasi va uning davlat boshqaruvidagi tutgan o'rni tizimli ravshan tahlil qilindi. Tadqiqotda asosiy e'tibor sud faoliyatining institutsional asoslarini moddiy, sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlashning konstitutsiyaviy kafolatlariga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlat boshqaruvi tizimida sud-huquq tizimining eng muhim tarmog'i sifatida ko'rilishining asosiy isbotidir.

Maqolada "Xabeas korpus" institutining ko'lami kengayishi – insonning shaxsiy huquq va erkinliklarini cheklashga har qanday harakat faqat sud qarori asosida amalga oshirish tartibi umumiy sudlar faoliyati bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Konstitutsiyadagi birinchi bor sudyalarning korpusi daxlsizligi va qonun hujjatlari belgilangan ishlar bo'yicha hisobdor emasligi, bu esa odil sudlovni amalga oshirishda tashkilot aralashuvlarga chek qo'yishi asoslab berilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada sud-huquq tizimi alohida bir tarmoq sifatida ko'rilib, hech qaysi organga bo'ysunmasligini, sudlar faoliyati faqatgina qonunchilikka asosan ish ko'rishi va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishi ko'zda tutilgan. Maqola yakunida sud tizimidagi raqamlashtirish jarayonlari va Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari kengayishi fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchini tasdiqlashdagi ahamiyati bo'yicha ilmiy tuzatishlar tuziladi.

Abstract

This article provides a systematic analysis of the transformation of the judiciary and its role within the mechanism of state governance in the context of the newly revised Constitution of the Republic of Uzbekistan. The research primarily focuses on strengthening the institutional foundations of judicial activity and the constitutional guarantees aimed at ensuring the genuine independence of the courts. The adoption of the new Constitution serves as legal evidence of the judicial system's evolution into a vital and independent branch of the state governance structure.

The article examines the expansion of the "Habeas Corpus" institute in close connection with the functioning of the courts of general jurisdiction, specifically focusing on the procedure where any procedural actions restricting individual rights and freedoms must be executed solely based on a court decision. It substantiates the significance of the first-time constitutional entrenchment of judicial immunity and the non-accountability of judges in specific cases, which serves to prevent any external interference in the administration of justice. Furthermore, it highlights that the judiciary remains independent of other state bodies, governed strictly by the law, and prioritized toward protecting the rights and interests of citizens. The article concludes with scientific findings on the importance of digitalization within the judicial system and the expansion of the Constitutional Court's jurisdiction in enhancing public confidence in the judiciary.

Kalit soʻzlar;

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, sud hokimiyati, mustaqillik, daxlsizlik, odil sudlov, hokimiyatlar boʻlinishi, inson huquqlari, Miranda qoidasi, Habeas korpus, aybsizlik prezumtsiyasi, tortishuv tamoyili, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, advokatura, huquqiy davlat, sud-huquq islohoti, konstitutsiyaviy shikoyat, qonun ustuvorligi.

Keywords;

New Edition of the Constitution, Judicial Power, Judicial Independence, Immunity of Judges, Fair Trial, Separation of Powers, Human Rights, Miranda Rule, Habeas Corpus, Presumption of Innocence, Adversarial Principle, Constitutional Court, Supreme Court, Advocacy, Rule of Law, Judicial-Legal Reform, Constitutional Complaint, Supremacy of Law.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada sud hokimiyatining mustaqilligi deklarativ emas, balki aniq mexanizmlar bilan mustahkamlandi. Oʻzbekiston Respublikasida sud Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari toʻgʻrisidagi xalqaro hujjatlarda eʼlon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlarini sud yoʻli bilan himoya qilishga daʼvat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini taʼminlashga qaratilgan.¹Oʻzbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan sud-huquq hokimiyatini demokratlashtirish, inson huquqlarini himoya qilish va sudning mustaqilligini sezilarli darajada bir qator tub oʻzgarishlarni oʻz ichiga oladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada sud-huquq tizimiga alohida eʼtibor qaratilishi esa sud tizimi fuqarolarning huquqlarining himoya vositalarining biri desak ham mubologʻa boʻlmaydi. Konstitutsiyaning XXII bobi toʻliqligicha sud hokimiyatiga bagʻishlangan, unda sud huquq tizimining faoliyati va zimmasiga yuklatilgan vazifalar, qonunning sud hokimiyati organlarini himoya qilish vazifalari toʻliq belgilangan va sud idoralari hech bir davlat organiga boʻysunmasdan faqat qonunga boʻysunishi keltirib oʻtilgan. Konstitutsiyaning 130-moddasidan 140-moddasigacha boʻlgan qismlari sud hokimiyatining mustaqilligini kafolatlaydi. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan va jamoat birlashmalaridan mustaqil. Oʻzbekistonda sud tizimi Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, harbiy sudlar, viloyat, tuman va shahar sudlaridan iborat. Hech qanday favqulodda sudlar tuzilishiga yoʻl qoʻyilmaydi. Yangi Konstitutsiyada sud ishlari qanday yuritilishi boʻyicha dunyo miqyosidagi demokratik standartlar muhrlandi jumladan; Aybsizlik prezumtsiyasi (28-modda): Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan boʻlsa, gumon qilinuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi shart. Tortishuvlik tamoyili: Sudda ish yuritish taraflarning (prokuror va advokat) oʻzaro tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi. Ochiqlik: Barcha sudlarda ishlar ochiq koʻriladi. Ishlarni yopiq majlisda koʻrishga faqat qonunda belgilangan hollarda (masalan, davlat siri yoki shaxsiy hayot daxlsizligi) yoʻl qoʻyiladi. Bu normalar esa Konstitutsiyaning xalqaro standartlarga toʻgʻri kelishini emas, balki insonlarning huquqlarini himoya qilishini ifoda qiladi. Oʻzbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Oʻzbekiston

¹ (Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 03/21/703/0723-son; 02.03.2024-y., 03/24/917/0170-son; 14.08.2024-y., 03/24/943/0616-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son; 29.01.2025-y., 03/25/1022/0083-son; 10.06.2025-y., 03/25/1067/0498-son; 15.08.2025-y., 03/25/1081/0738-son; 30.12.2025-y., 03/25/1109/1241-son)

Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi.² Bu norma sudlov qilish faoliyati faqatgina sud organi tomonidan amalga oshirilishi, hech bir fuqaro yoki davlatning boshqa organiga sud qilishga ruxsat berilmasligini bildiradi. Sud hokimiyati faoliyatiga hech bir organ yoki shaxsning aralashuviga yo'l qo'yilmaydi. Konstitutsiyada mustahkamlangan hokimiyatlarning bo'linishi prinsipi 130-modda orqali sud tizimida o'zining amaliy ifodasini topadi. Sud tizimi na qonunchilik (Oliy Majlis) ijro etuvchi (Hukumat, hokimliklar) hokimiyatga bo'ysunadi. Bu "tiyib turish va barqaror"likning asosi bo'lib, sudning boshqa organlar ta'siriga tushib qolmasligini kafolatlaydi. Bundan tashqari moddada sud hokimiyatining siyosiy partiyalardan mustaqilligi alohida ko'rsatilgan. Bu juda muhim demokratik talabdir: Sudya biron bir siyosiy partiyaning manfaatini ko'zlamasligi kerak, sud qarorlari siyosiy mafkura emas, faqat va faqat qonun va Konstitutsiya asosida qabul qilinishi shart, amaldagi qonunchilikka ko'ra, sudya lavozimida bo'lgan davrida siyosiy partiyalarga a'zolikni to'xtatib turishi belgilangan. "Sud boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi" jumlasida sud faoliyatiga nodavlat tashkilotlar, diniy tashkilotlar yoki turli manfaatdor guruhlarining bosim o'tkazishini qat'iy man etadi. Bu sudning xolisligini bevosita ta'minlaydi. 130-modda sud hokimiyatining umumiy mustaqilligini belgilasa, u o'z navbatida har bir sudyaning muayyan ishni ko'rayotganda erkin bo'lishini taqozo etadi. Sudyaga biron-bir davlat organi yoki mansabdor shaxs tomonidan ko'rsatma berilishi konstitutsiyaga zid va jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan holat hisoblanadi. Bundan esa biz shunday natija ko'ramiz; Agar sud ijro hokimiyatiga (masalan, hokimlikka yoki vazirlikka) qaram bo'lsa, oddiy fuqaro davlat organi bilan nizolashganda g'alaba qozonishi imkonsiz bo'lib qolardi, bu norma esa buning oldini oladi. Mustaqil sud — inson huquqlarining oxirgi va eng ishonchli himoya qo'rg'onidir. O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi esa sud tizimi hech kimga hisobdor emasligini, faqat qonunga hisobdorligini va uning faoliyatiga har qanday aralashuv g'ayriqonuniy ekanligini muhrlab qo'ygan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 136 va 137-moddalari sudyalarning maqomi hamda ularning daxlsizligini ta'minlovchi asosiy huquqiy normalarni belgilab beradi. Bu normalar sudning har qanday tashqi bosimlardan xoli bo'lishi va adolatli qarorlar qabul qilishi uchun poydevor hisoblanadi. Sudyalar o'z faoliyatida mustaqildir va faqat qonunga bo'ysunadilar. Ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga har qanday tarzda aralashish qat'iy man etiladi va bunday aralashuv qonunga muvofiq jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.³ Yangi tizimga ko'ra, sudyalar uchun lavozimda bo'lishning muddatsiz davri joriy etildi. Dastlab muayyan muddatga, odatda 5 va keyin 10 yilga, shundan so'ng esa lavozimida bo'lishning muddatsiz davriga saylanadilar yoki tayinlanadilar. Bu o'zgarish sudyaning ertangi kuni haqida qayg'urmasdan, faqat qonun ustuvorligiga tayanib ishlashini kafolatlaydi. "Sudyalarda daxlsizdir. Sudyaning daxlsizligi uning turar joyiga, xizmat xonasiga, foydalanadigan transporti va aloqa

² <https://lex.uz/docs/-6445145#-6446095>

³ (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 03/21/703/0723-son; 02.03.2024-y., 03/24/917/0170-son; 14.08.2024-y., 03/24/943/0616-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son; 29.01.2025-y., 03/25/1022/0083-son; 10.06.2025-y., 03/25/1067/0498-son; 15.08.2025-y., 03/25/1081/0738-son; 30.12.2025-y., 03/25/1109/1241-son)

vositalariga, uning xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolarga va hujjatlarga tatbiq etiladi.”⁴ Sudyaning daxlsizligi faqat uning shaxsi bilan cheklanmaydi, balki uning hayoti va faoliyati bilan bogʻliq barcha sohalarni qamrab oladi, jumladan yashash joyi va ishxonasi, Sudyaning ruxsatisiz yoki maxsus qonuniy asoslarsiz uning uyi yoki xizmat xonasiga kirish, u yerda tintuv oʻtkazish mumkin emas. Transport va aloqa: Sudya foydalanadigan avtomobil, telefon soʻzlashuvlari va yozishmalari shaxsiy yoki xizmat doirasidagi boʻlsin u daxlsizdir. Ularni yashirincha eshitish yoki tekshirish qatʼiyan man etiladi. Sudyaga nisbatan har qanday jinoiy yoki maʼmuriy choralar koʻrish juda murakkab va himoyalangan tartibda amalga oshiriladi misol uchun, jinoyat ishi qoʻzgʻatish: Sudyaga nisbatan faqat Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan jinoyat ishi qoʻzgʻatilishi mumkin. Qamoqqa olish esa Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortish, ushlab turish yoki qamoqqa olishga yoʻl qoʻyilmaydi. Oʻzbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida sudyalarning daxlsizligi masalasi 137-moddada mustahkamlab qoʻyilgan. Ushbu modda sud hokimiyatining mustaqilligini amalda taʼminlovchi eng muhim huquqiy "qalqon" hisoblanadi. Sudya oʻz vakolatlarini amalga oshirayotganda qabul qilgan qarorlari uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas (agar uning harakatlarida ataylab qilingan jinoyat tarkibi boʻlmasa). Yaʼni, sudya oʻzining ichki ishonchi va qonun asosida chiqargan hukmi uchun keyinchalik biron-bir davlat organi tomonidan taʼqib qilinmasligi kafolatlanadi. Ushbu daxlsizlik sudyaga shaxsiy imtiyoz berish uchun emas, balki quyidagilar uchun xizmat qiladi: Sudya kuchli mansabdor shaxslar yoki boy guruhlariga qarshi qaror chiqarayotganda, oʻziga nisbatan soxta ayblovlar qoʻyilishidan qoʻrqmasligi uchun va tergov organlari yoki ijro hokimiyati tomonidan sudyaga bosim oʻtkazish imkoniyatlarini yoʻq qilish va sudyaning faqat dalillarga va qonun matniga suyanib ish koʻrishiga zamin yaratadi. Qisqacha qilib aytadigan boʻlsak 137-modda — bu sudyaning erkinligi va xalqning adolatga boʻlgan ishonchi kafolatidir. Agar sudyaning daxlsizligi buzilsa, sudning mustaqilligi haqida gapirish imkonsiz boʻlib qoladi. Oʻzbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mamlakatimizda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini taʼminlash va uni inson huquqlarining ishonchli himoyachisiga aylantirish yoʻlida muhim burilish yasadi. Bu esa Oʻzbekistonda sud hokimiyatini davlat mexanizmidagi "tiyib turish va muvozanat" tizimining markaziy boʻgʻiniga aylantirdi. Ushbu islohotlar xalqning adolatga boʻlgan ishonchini oshirishga va mamlakatning xalqaro hamjamiyatdagi demokratik nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2023. (Yangi tahrir).
2. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. (Agar yangi tahrir boʻyicha akadernashrlar chiqqan boʻlsa, masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi yoki Adliya vazirligi tomonidan tayyorlangan materiallar).
3. Sudyalari toʻgʻrisidagi qonun
4. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi

⁴ (Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 03/21/703/0723-son; 02.03.2024-y., 03/24/917/0170-son; 14.08.2024-y., 03/24/943/0616-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son; 29.01.2025-y., 03/25/1022/0083-son; 10.06.2025-y., 03/25/1067/0498-son; 15.08.2025-y., 03/25/1081/0738-son; 30.12.2025-y., 03/25/1109/1241-son)

Konstitutsiyaviy Qonuni. (2023-yil 1-maydan kuchga kirgan).

5. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.

